

RAVISHLARNING YASALISHI VA ULARNING O'ZBEK TILIDAGI QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI

Bobokulova Ozoda Baxriddin qizi

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi.

bobokulovaozoda@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.16628420>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida ravish tushunchasi, uning yasash yo'llari va tasnifi tahlil qilinadi. Ravishlarning morfologik shakllanishi, qo'shimchalar yordamida hosil bo'lish usullari, qo'shma va birikma ravishlarning tuzilishi misollar bilan izohlanadi. Ravishlarning gapdagi vazifasi, nutq boyligini oshirishdagi o'rni ham yoritiladi. Maqola filologiya yo'nalishidagi talabalar, o'qituvchilar va tilshunoslar uchun ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ravish, ravishlarning yasash, qo'shimcha, morfologiya, o'zbek tili, so'z yasash, qo'shma ravish, birikma ravish, hol bo'lagi, tilshunoslik.

Abstract. This article examines the concept of adverbs in the Uzbek language, their formation methods, and classification. It analyzes the morphological structure of adverbs, the ways they are derived through affixes, and explains compound and phrase adverbs with examples. The article also highlights the syntactic functions of adverbs in sentences and their role in enriching the vocabulary. This study serves as a scientific and practical source for students, teachers, and linguists specializing in Uzbek philology.

Keywords: adverb, adverb formation, affix, morphology, Uzbek language, word formation, compound adverb, phrase adverb, adverbial modifier, linguistics.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие наречия в узбекском языке, пути его образования и классификация. Анализируется морфологическая структура наречий, способы их образования с помощью аффиксов, а также приводятся примеры сложных и словосочетательных наречий. Отдельное внимание уделяется синтаксической роли наречий в предложении и их значению для обогащения словарного запаса. Статья может служить научно-практическим пособием для студентов, преподавателей и лингвистов, занимающихся изучением узбекского языка.

Ключевые слова: наречие, образование наречий, аффикс, морфология, узбекский язык, словообразование, сложное наречие, словосочетательное наречие, обстоятельство, лингвистика.

Kirish

Ravish- o'zbek tilida mustaqil so'z turkumlari orasida o'ziga xos o'rin tutadi. Ravishlar asosan gapda hol bo'lagi sifatida ishtirok etib, fe'l, sifat, boshqa ravish yoki butun gapning ma'nosini aniqlashtiradi, harakatning qanday amalga oshirilishi, uning vaqti, joyi, darajasi, sababi kabi ko'plab qo'shimcha ma'lumotlarni bildiradi. Shu tufayli ravishlar gap mazmunini boyitadi, uning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi va tildagi aniqlik va obrazlilikni ta'minlaydi.

O'zbek tili boy va qadimiy til sifatida ravishlarning yasashida katta imkoniyatlarga ega.

Ravishlar yasash jihatidan ikki asosiy turga bo'linadi: sodda ravishlar va yasalma ravishlar. Sodda ravishlar ko'pincha qadimdan mustaqil shaklda qo'llanib kelgan so'zlardir (masalan: kecha, bugun, endi, yaxshi, tez va h.k.). Yasalma ravishlar esa boshqa so'z turkumlaridan — asosan sifat va otlardan morfologik qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi (masalan: o'zbekcha, asta-sekin, yillab, o'z-o'zidan, o'zbekona va h.k.).

Ravishlarni yasashda eng faol ishtirok etadigan qo'shimchalar orasida -cha, -lab, -ona, -siz, -lik kabi affikslar alohida o'rin egallaydi. Bundan tashqari, ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishi, takrorlanishi yoki birikishidan ham yangi ravish shakllari hosil bo'lishi mumkin.

Masalan, "tez-tez", "ertalabdan kechgacha", "birin-ketin", "birvarakayiga" kabi shakllar qo'shma va birikma ravishlarga misol bo'la oladi. Ravishlarning yasaliishi va ularning gapdagi vazifalarini o'rganish tilshunoslikda morfologiya va sintaksis bo'limlariga bevosita bog'liq bo'lib, bu sohada tadqiqotlar olib borish ona tilini mukammal o'rganish, til boyligini kengaytirish, zamonaviy adabiy tilni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ravishlarning yasaliishini o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki maktab va oliy ta'lim tizimidagi o'quv jarayonlari uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi ravishlarning yasaliish yo'llari, ularni hosil qiluvchi affikslar, qo'shma va birikma ravishlarning shakllanishi hamda ularning gap tarkibidagi vazifalari batafsil yoritiladi va adabiy hamda amaliy misollar orqali tahlil qilinadi.

Asosiy qism

O'zbek tilida ravishlarning o'rganilishi tilshunoslikda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ravishlarning shakllanishi va qo'llanilishi ko'p jihatdan tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini belgilaydi. Ular gapda harakatning aniqligi va ifoda tiniqligini ta'minlab, gapning ma'no ko'lamini kengaytiradi. Asosan ravishlar ikki asosiy guruhga — sodda ravishlar va yasalma ravishlarga bo'linadi. Sodda ravishlar tarixan mustaqil so'z sifatida shakllanib, hech qanday qo'shimcha yoki boshqa so'z bilan birikmasdan qo'llaniladigan shakllardir. Masalan, bugun, kecha, yaxshi, tez, ko'p, kam, erta, kech kabi so'zlar sodda ravishlarga misol bo'la oladi.

Ular ko'pincha qadimiy ildizlarga ega bo'lib, xalq og'zaki ijodi va yozma manbalarda keng uchraydi. Yasalma ravishlar esa boshqa so'z turkumlaridan — ko'pincha sifat va otlardan — maxsus qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi. Bu jarayonda morfologik yasaliish asosiy o'rin tutadi. O'zbek tilida ravish yasovchi eng faol affikslar qatoriga -cha, -lab, -ona, -siz, -lik, -dan, -gacha, -da, -dan beri va boshqa ko'plab qo'shimchalar kiradi. Masalan, o'zbekcha (o'zbek + -cha), yillab (yil + -lab), asta-sekin (takrorlovchi shakl), o'zbekona (o'zbek + -ona) kabi shakllar yasalma ravishlarga misol bo'la oladi. Ravishlarning yasaliishida qo'shimchalar yordamida so'zga qo'shimcha ma'no yuklanadi. Masalan, -cha qo'shimchasi ko'pincha qiyoslov ma'nosini bildiradi: bolalarcha, oddiycha, shoirona, otaona (o'zbekona) va h.k. -lab qo'shimchasi esa ko'proq harakatning davomiyligini yoki ko'pligini ifodalaydi: o'ylab, yillab, oylab, qadam-baqadam. Shuningdek, o'zbek tilida qo'shma ravishlar va birikma ravishlar ham keng qo'llaniladi. Qo'shma ravishlar ikki yoki undan ortiq so'zning takrorlanishi yoki birikishi orqali yuzaga keladi: tez-tez, birin-ketin, ertalabdan kechgacha, kundan-kunga, birvarakayiga kabi. Bunday ravishlar harakatning davomiyligi, ketma-ketligi, chegarasi yoki miqdoriy belgilarini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ayrim bog'lovchi qo'shimchalar va yordamchi so'zlar orqali ham birikma ravishlar hosil qilinadi. Masalan, o'z vaqtida, har kuni, bir vaqtning o'zida, o'z-o'zidan, bir zumda kabi shakllar so'z birikmasi shaklidagi ravishlarga kiradi va ular gapda bir butun ma'no beradi. Ravishlarning gapdagi vazifasi ularning yasaliish shakliga qarab turli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ular ko'pincha hol bo'lagi vazifasini bajaradi, ba'zida esa gapning boshqa bo'laklari bilan murakkab sintaktik bog'lanishlarda ishtirok etadi. Masalan, U tez gapirdi, U astalik bilan yurdi, Ular birdan chiqib ketishdi kabi gaplarda ravishlar harakatning qanday amalga oshganini ko'rsatadi va gapning mazmunini boyitadi. Yana bir muhim jihat shundaki, ravishlar gapda boshqa so'z turkumlari bilan erkin bog'lanadi va bu bog'lanish ularning o'zaro turlanishi va boyib borishini ta'minlaydi.

Shu boisdan, ravishlarning yasaliishi, ularni hosil qiluvchi affiksalar tizimi va ular orqali yuzaga keladigan semantik nozikliklar tilshunoslikda o'zining doimiy dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Xulosa

O'zbek tili leksikasi va grammatikasida ravishlarning o'rni beqiyosdir. Ular gap mazmunini aniqlashtiradi, harakatning qanday, qayerda, qachon yoki qanchalik amalga oshganini ifodalab, nutqqa aniqlik va ifoda boyligini beradi. Ravishlarning yasaliishi esa morfologiya bo'limida eng serqirra sohalardan biri bo'lib, bu jarayonning o'rganilishi o'zbek tilining tuzilishi va boy ifoda imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada ravishlarning sodda va yasalma turlari, ular qanday qo'shimchalar yordamida hosil bo'lishi, qo'shma va birikma ravishlarning tuzilishi hamda ularning gapdagi vazifalari keng yoritib berildi. O'rganilgan misollar tilning boyligini, uning doimiy ravishda rivojlanayotganini va ifoda imkoniyatlarining kengligini tasdiqlaydi. Mazkur mavzuni yanada chuqur tadqiq etish ona tili va adabiyot o'qituvchilari, filologiya yo'nalishidagi talabalarga, tilshunoslik izlanishlari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun zarur ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ravishlarning yasaliishini o'rganish jarayonida o'zbek tili grammatikasidagi boshqa bo'limlar bilan ham uzviy bog'liqlik yoritilib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A. Hojiyev, O'zbek tili so'z yasaliishi tizimi, o'quv qo'llanma, Toshkent, O'qituvchi nashriyoti 2007.
2. Sayfullayeva va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili 2010
3. Jalolov M. O'zbek tili grammatikasi kursi. Toshkent: O'qituvchi, 1980.
4. Jo'rayev N. O'zbek tilining hozirgi zamon grammatikasi. Qarshi: Nasaf, 2015.
5. Qayumov A. O'zbek tilining morfologiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 1990.